

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI


FRANSUZ TILI FONETIKASI VA GRAMMATIKASI KAFEDRASI

***MAVZU: ITALYAN TILI MORFOLOGIYASINI O'ZBEK
TALABALARIGA O'QITISH UCHUN YARATILADIGAN O'QUV
QO'LLANMA TUZILISHI***

Roman-german filologiyasi fakulteti
4-kurs o'zbek 07– guruh talabasi
Hatamova Nodiraning
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : o'qituvchi Rustamova D.A.

Konsultant : f.f.n. Suvonova N.



Samarqand-2013

M U N D A R I J A :

KIRISH.....3

I bob.

Italyan tili grammatikasini o'zbek talabalariga o'qitishning ahamiyati.

1.1 Italyan tilini o'zbek talabalariga o'qitishda darslikning roli va unda morfologiyaning ahamiyati.

1.2. Xorijiy til grammatikasini qiyosiy o'rgatish usullari.

I bobga xulosa

II bob

Italyan tili morfologiyasini o'zbek talabalariga qiyoslab o'rgatishning ahamiyati va roli.

1. Italyan tili o'zgaradigan so'z turkumlarining o'zbek tili bilan qiyosiy tahlili

2. Italyan tili o'zgarmaydigan so'z turkumlarining o'zbek tili so'z turkumlari bilan qiyosiy tahlili.

X U L O S A.....73

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....78

KIRISH

So'nggi yillarda fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy sohalarda ma'suliyatli vazifalarni qo'ydi. Bunday vazifalardan biri chet tillarni o'rganish va o'rgatishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ta'бири bilan aytganda, "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir".¹¹ Mustaqil yurtimiz O'zbekistonda vatanimiz ravnaqi, gullab yashnashi, talaba yoshlarning har tamonlama bilim olishlari, ularning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, chet tillarni o'rgatish va jahon hamjamiyati bilan davomiy aloqada bo'lishga hukumatimiz tamonidan katta ahamiyat berib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston va Italia davlatlari o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar rivoji uchun italyan tilini O'zbekistonda o'rgatish 1999-yildan yo'lga qo'yildi. Bunday murakkab vazifani muvaffaqiyatli ado etish uchun esa dastavval kuchli mutaxassislar zarurligi ta'kidlandi. Zero, yurtboshimiz Islom Abdug'anievich Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, "shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"². Sharq dunyosida azaldan ilm fanga juda katta e'tibor berib kelingan va ilmni o'rgatuvchi kishininig ma'suliyati juda katta hisoblangan. Zero, "ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar" – deyiladi hadislarda. Shunday ekan yetishib chiqayotgan yosh kadrlarni zamon talablariga mos ravishda ta'lim berish katta ma'suliyat, bilim va g'ayrat yana yaxshi mutaxassis talab qiladi.

¹ Karimov I.A. "Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" – T.: O'zbekiston, 1998. 8-bet.

² B.Mirkomilov, O. O'ralova, P. Muhammadiyev "Ma'naviy tiklanish va o'zlikni anglash" Toshkent "muharrir nashriyoti" 2010 4-bet

Darhaqiqat, xorijiy tillarni jumladan, italyan tilini har tomonlama chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, biz ham ushbu bitiruv malakaviy ishimizda aynan italyan tilini chuqur o'rganishga yordam bo'ladigan o'zbek talabalar italyan tilini o'rganishlarida asosiy vosita hisoblanadigan o'quv qo'llanma tuzilishi va unda morfologiyaning ahamiyati, ikki tilda so'z turkumlari, ular o'rtasidagi o'xshash va noo'xshash tamonlarini farqlarni ko'rsatishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Mavzuning dolzarbligi. 2005-yildan buyon italyan tili birinchi til sifatida o'qitilishi yo'lga qo'yildi. O'zimizda italyan tilini o'rgangan o'qituvchilar darslarni o'zbek guruhlariga o'zbek tilida o'tishlarda, asosiy grammatik qo'llanmalar rus tilida. Foydalaniladigan barcha adabiyotlar italyan yoki rus tilida yozilganligi sababli bu muammo o'rganilish bosqichida turibdi. O'z o'zidan ma'lum bo'ladiki, o'zbek talabalariga italyan tili morfologiyasini o'rgatishda o'zbek tilida yaratilgan o'quv qo'llanmaning yo'qligi va ikki til grammatikasida so'z turkumlari o'rtasida farqlar mavjudligi va o'zbek talabalarida italyan tili so'z turkumlarini tushuntirishda o'z ona tili grammatikasi bilan qiyoslab tushuntirish eng muhim dolzarb masalalardandir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Italyan tili yaqin bir necha yillardan buyon yurtimizda o'rgatilatilayotgani bois o'zbek tilida darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish bosqichi ketmoqda. Shunday ekan, italyan tili grammatikasi o'zbek tili so'z turkumlari bilan solishtirilib yaratilgan o'quv qo'llanma mavjud emas. Yaratilayotgan o'quv qo'llanmada e'tibor qaratiladigan mavzular o'zbek talabalarining italyan tilini oson va tez o'rganishlariga moslashtirilgan bo'lmog'i lozim. Mening bitiruv malakaviy ishim italyan tili morfologiyasini o'zbek talabalariga o'qitish uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanma tuzilishi ustida bo'lganligi sababli o'quv qo'llanmaning tuzilishi morfologiya tashkil etishi va o'zbek talabalarida italyan so'z turkumlarini o'zbek tili so'z turkumlari bilan solishtirib, ular o'rtasidagi farqlarni yoritib berishdan iborat. Muammolarning o'rganilganligiga

o'qituvchilar tajribasi va talabalarning o'rganish davomida uchraydigan qiyinchiliklar tomonidan nazar tashlasak, muammolarni hal etish darajasida deb ayta olamiz.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi italyan tili so'z turkumlarini tushuntirishda o'zbek tili so'z turkumlaridan foydalanib, ular o'rtasidagi farqlarni ko'rsatgan holda talabalarga so'z turkumlarini tushuntirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining oldiga qo'yilgan masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratildi:

- Italyan tili o'zgaradigan so'z turkumlarini o'zbek tili so'z turkumlari bilan solishtirish va ular o'rtasidagi farqlar;

- Italyan tili o'zgarmaydigan so'z turkumlarini o'zbek tili so'z turkumlari bilan solishtirish va ular o'rtasidagi farqlar.

Bitiruv malakaviy ishining obyekt va predmeti. Tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan biri hisoblangan morfologiya bitiruv malakaviy ishining obyektini tashkil etsa, undagi aynan so'z turkumlari esa bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik va nazariy asoslari. Tilshunoslikning grammatika, xususan morfologiya bo'limi yaratilayotgan o'quv qo'llanma, O'. Hoshimov va I. Yoqubovlarning metodika bo'yicha olib borgan ishlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Bitiruv malakaviy ishining oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda taqqoslash metodi va tahlil qilish metodidan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar quyidagilardan iborat:

- Italian tilini o'zbek talabalariga o'qitishda darslikning roli va unda morfologiyaning ahamiyati.

- Xorijiy til grammatikasini qiyosiy o'rgatish usullari;

- Italian so'z turkumlarining o'zbek tili so'z turkumlari bilan farq va o'xshash jihatlari;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Italian va o'zbek tillaridagi morfologiyaning solishtirilganligi va ular o'rtasidagi o'xshash va noo'xshash tamonlar ko'rsatildi. Shunday qilib, ikki tilning solishtirilishiga hissa qo'shildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Italian va o'zbek tillari so'z turkumlarining o'xshash va noo'xshash jihatlari aniqlanib, solishtirilgan holda tushuntirildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishdagi tahlil natijalari asosida nazariy, amaliy va qiyosiy grammatika fanlarini o'qitishda, qolaversa, chet tilarini o'qitish va o'rganish jarayonlarida ham foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi qo'yilgan vazifalarning ketma-ket izchilligiga asoslanib, u kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB

ITALYAN TILI GRAMMATIKASINI O'ZBEK TALABALARIGA O'QITISHNING AHAMIYATI

Tilni tushunmoq va unda o'z fikrini to'g'ri bayon etmoq uchun kishi o'rganilayotgan til grammatika mexanizmini o'zlashtirmog'i lozim. Darhaqiqat, kishi gapdagi barcha so'zlarni bilsa ham, bu gaplar o'rtasidagi bog'liqlikni sezmasa, uning mazmunini tushunib yetmasligi mumkin. Aksincha, biron gapda bitta, ikkita va undan ham ko'proq notanish so'z ishlatilgan bo'lsa ham, kishi til strukturasi yaxshi egallagan bo'lsa, u shu so'zlarning ma'nosini fahmlab bilib olishi yoki hech bo'lmaganda shu so'zlarni lug'atdan topib gapning mazmunini tushunib olishi mumkin. Masalan: o'zbek va rus o'quvchilari ushbu gapdagi hamma so'zlar notanish bo'lsa ham, grammatikani yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, uning mazmunini tushunishda kamroq qiyinchiliklarga uchrashi mumkin.

Aytaylik, *il dasso nibba il gazzuro*. Ushbu gapda qatnashgan barcha so'zlar o'ylab topilgan bo'lib, ularning hech qanday ma'nosi yo'q. Ammo italyan tili grammatikasini yaxshi o'zlashtirgan talaba bu gapning qurilishidan o'ziga yetarlicha xulosa chiqarib oladi. Chunki italyan grammatikasiga ko'ra "il" aniq artikl hisoblanib undan so'ng keladigan so'z ot so'z turkumiga tegishli biron bir predmet nomi bo'ladi. Bu yerda "dasso" ot so'z turkumiga tegishli bo'lgan so'z hisoblanadi. Endi "nibba" so'zini tahlil qiladigan bo'lsak bu so'zning oxirgi harfiga e'tibor bergan holda uning fe'lining birinchi turdagi "-are" tuslanishiga ko'ra hozirgi zamonda birlik uchinchi shahsga tegishli formada turgan deb aytishimiz mumkin va albatta har bir gapda fe'l bo'lishi kerakligini hisobga olib buni gapning kesimi deyishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. "il" so'zini yuqorida aniq artikl mujskoy rodga tegishli va undan keyin albatta ot so'z turkumiga tegishli biron predmet nomi keladi degan edik. Lekin gapdagi ikkinchi ot "gazzuro" so'zi oldidan kelgan "il" artikli fe'ldan keyin kelganda predlog vazifasini bajaradi. Bu esa o'zbek tilidagi tushum kelishigini ifodalashi yoki jo'nalish kelishigini ko'rsatishi mumkin. Bu yerda barcha so'zlar o'ylab topilgan, hech qanday ma'noga ega bo'lmagan so'zlar va talaba

ushbu nuqtada so'zlarni emas balki gap strukturasini tarjima qilishga harakat qilib ko'radi: "il dasso" deb nomlangan predmet "il gazzuro" deb nomlangan predmetga "nibbare" deb nomlangan ish harakat qildi degan fikrni talaba tushunib oladi.

Grammatikaga oid bilimlarsiz, grammatik mexanizmni shakllantirmasdan turib, chet tilidagi gapirish ko'nikmasi haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Agar talaba shunday mexanizmni o'zlashtirgan bo'lsa, u chet tilida grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan gaplarni hosil qila olishi yoki tinglab tushuna olishi mumkin. Italian tilini egallash uning grammatikasini o'rganmay turib amalga oshirilishi mumkin emas. O'rganilayotgan tilda nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish uchun grammatikani o'rganish dardkor. Grammatikani o'rganish uchun to'rtta nutq faoliyati turlarida o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shu sababdan grammatikani o'rganayotgan o'qituvchi talabani uni nutq faoliyatida qo'llashga o'rgatsin. Oldin grammatik material – minimum tanlanadi. Metodikada grammatika termini ikki ma'noga ega: bir tamondan grammatika tilning qurilishini bildirsa, ikkinchi tamondan u grammatik qurilishni tatqiq qiladigan fan ma'nosini anglatadi.

Chet tillar o'qitish metodikasida bu ikki tushunchani farqlash quyida to'xtab o'tilgan sabablarga ko'ra juda muhim ahamiyatga ega. Tilning grammatik qurilishi uning so'z boyligi bilan birga til materialini tashkil qiladi. Har qanday tilni amaliy jihatdan egallash uning grammatik qurilishini u yoki bu darajada mukammal bo'lishini taqozo qiladi. Hozirda asosiy oldimizda turgan masala grammatik hodisalarni egallashning samarali va tezkor usullarini ishlab chiqib uni amalda qo'llashdan iborat. Italian tili grammatikasini o'qitishdan asosiy maqsad nutq faoliyati har xil turlarining to'g'ri shakllanishini ta'minlaydigan nutq grammatik malakalarni hosil qilishdan iboratdir. Bu yerda birinchidan morfologik – grammatik malakalarni, ya'ni otlarda rod qo'shimchalarini to'g'ri qo'llashni, fe'llarning shaxs qo'shimchalarini to'g'ri ishlatish malakalarini shakllantirish haqida ketmoqda. Ikkinchidan, analitik tillarda nutqiy sintaktik malakalarni, ya'ni turli tipdagi gaplarni struktura jihatdan to'g'ri tuzatish malakalarini hamda qo'shma gaplarda so'z tartibini qo'llash malakalari

shakllantirish zarur. Shuning uchun grammatika ustida olib boriladigan hamma ish ana shu maqsadga qaratilmog'i lozim.

1.1 . Italian tilini o'zbek talabalariga o'qitishda darslikning roli va unda morfologiyaning ahamiyati .

2005-yildan buyon italyan tili birinchi til sifatida o'qitilishi yo'lga qo'yildi. O'zimizda italyan tilini o'rgangan o'qituvchilar darslarni o'zbek guruhlariga o'zbek tilida o'tishlarda, asosiy grammatik qo'llanmalar rus tilida. Foydalaniladigan barcha adabiyotlar italyan yoki rus tilida yozilganligi sababli bu muammo o'rganilish bosqichida turibdi . O'z o'zidan ma'lum bo'ladiki, o'zbek talabalariga italyan tilini o'rgatishda o'quv qo'llanma yaratish o'qituvchilarimiz oldilarida turgan eng muhim dolzarb masalalardandir. Yaratilayotgan o'quv qo'llanma italyan tilini o'rganayotgan o'zbek talabalarning tilni chuqur, tez, mustahkam o'rganishlari uchun muhim vosita sanalib, u talabalarning dastlabki bilimlarining poydevori bo'lmog'i lozim. Shu sababli ushbu o'quv qo'llanma yaratilishida italyan tilini o'rgatishning eng tezkor va talabalarning tushunishlari uchun qulay bo'lgan tilshunoslikning morfologiya bo'limi asos qilib olindi.

Yaratilayotgan o'quv qo'llanmaning roli o'zbek talabalariga o'zbek tilida italyan tili morfologiyasini tushuntirib, grammatikani yaxshi o'zlashtirishlari uchun juda katta sanaladi. Buning asosiy sababi morfologiya orqali tilni tez va aniq, to'g'ri grammatik qoidalar orqali o'rgatish mumkinligidandir. Yaratilayotgan o'quv qo'llanma asosan italyan tili morfologiyasi asosida tashkil etilmoqda. Buning asosiy sababi morfologiya orqali tilni tez va aniq, to'g'ri grammatik qoidalar orqali o'rgatish mumkinligidandir. Yangi bir xorijiy bir tilni o'rganishdan asosiy maqsad bu o'sha tilda muloqotga kirishishdan iborat ekan, shu muloqotni tashkil qilish uchun esa biz albatta italyan tili grammatikasini o'rganishimiz lozim. Grammatikani bilmasdan ham til o'rganish mumkin. Aytaylik bir mashina kir hamma joyi loy bo'lgan va yana bir mashina toza oynalari yarqiragan ko'rsang ko'zing quvnaydigan holda, xuddi shunday grammatikani bilgan, grammatik qoidalarga tayangan

muloqotni toza mashinaga qiyos qilsak, notoza, kir bo'lib yotgan mashinani hech qanday grammatik qonun qoidalarga bo'ysunmagan holda tashkil qilingan muloqotga qiyos qilish mumkin. Umuman olganda har bir tilning taraqqiyot natijasida shakllangan grammatik qurilishi bo'ladi. Tilning grammatik qurilishini o'rganuvchi fan shu tilda so'zlashuvchilar uchun juda muhim fandır. Ba'zi so'zlar leksik jihatdan o'zaro keskin farqlansalar, grammatik jihatdan bir-birlari bilan bog'liq bo'ladilar. Masalan: daftar, bino, bog', maktab, hovli, qoshiq, qaychi, daraxt kabi so'zlar leksik ma'noga ko'ra hech qanday umumiylikka ega bo'lmagan so'zlardir. Ammo, grammatik jihatdan ular ular ot mustaqil so'z turkumiga kiruvchi so'zlar sifatida birlashadilar. Shuning uchun leksik ma'noga xususiylik, grammatik ma'no umumiylik xususiyatiga egadir. Morfologiya so'z tuzilishi bilan bog'liq, uning xususiyatlaridan kelib chiqadigan masalalari nazariy jihatdan puxta yoritilmas ekan, tilning grammatik strukturasi tasvirlaydigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratish, o'quv yurtlarida ta'limni asosli va ishonarli qilib olib borish kabi praktik ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilmaydi. Shu kabi muammolarni yechish maqsadida yaratilayotgan o'quv qo'llanmada so'z turkumlari va ularning o'zbek tilida tarjimai bilan berish yordamida o'zbek talabalariga italyan tili grammatikasini o'rgatish va ikki tildagi so'z turkumlarini solishtirgan holda yuzaga kelayotgan muammolarni yechish maqsadida biroz bo'lsada malumotlar berish orqali muammolarni hal qilish nazarda tutilmoqda.

Yaratilayotgan o'quv qo'llanma birinchi va ikkinchi kurs talabalariga mo'ljallangan. Aynan til o'rganishning dastlabki yillarida grammatikani yaxshi o'zlashtirish keying yillarda tilning nazariy fanlarini o'rganishning kafoloti bo'ladi. Buni to'g'ri tashkil qilish va uni amalga joriy qilish asosiy vazifalarimizdan ekanligini e'tiborga olgan holda o'quv qo'llanma talabalar uchun avvalombor tushunarli, o'rganishga sodda, aniq malumotlar, to'g'ri ko'rsatmalar bilan boyitilgan va albatta berilgan, tushuntirilgan mavzu yuzasidan mustahkamlash uchun turli mashqlar, krosvordlar orqali ko'nikma xosil qilish ko'zda tutilayapti. Buning asosiy sababi shundaki talaba o'qigan mavzusini o'rganibgina qolmay italyan tili

grammatikasida mavjud bo'lgan istisno holatlar mavzu so'ngida mashqlar yordamida mustahkamlash istisno holatlarni ham yodda saqlab qolish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Har bir so'z turkumi o'zining alohida o'ziga xos xususiyatlariga ega va ular har tilda turli xil prinsiplar asosida turkumlarga ajratiladi. Ba'zan leksik ma'noni asosiy yetakchi qilib olinganini guvohi bo'lsak, ba'zan morfologik jihatdan asos qilib olinganini ko'rishimiz mumkin..

Italyan tilida so'z turkumlariga ajratishda morfologik va sintaktik belgilari asos qilib olingan. Tillarning o'ziga xosligi tufayli turli tillar uchun yagona morfologik tasnif yaratish mumkin emas. O'zbek tili grammatikasini aytaylik, uni italyan tili grammatikasi tipiga qarab yaratish mumkin emas. Shu sababli turli tillar grammatikasi turlicha va ularning har biri o'zlarining xususiy jihatlariga ega bo'lib ular nazariy jihatdan o'zgarmas bo'lsalarda amaliy tamondan turli o'zgarishlarga muloqot jarayonida uchraydi. Demak, bu hisobdan til umumiy, nutq esa xususiydir. Turli tillar turlicha grammatikaga qaramasdan bu jarayon barcha tillarda sodir bo'lmoqda. Buni yigirma birinchi asr axborot asri ekanligini, texnika taraqqiyotining yuqori sur'atlarda o'sib borayotgani, globallashtirish jarayoni, yuqori miqdordagi axborotlarni butun dunyoning bir zumda xoxlagan joyida xoxlagan malumotni olish imkoniyati borligi va yangi bir chet tilini o'rganayotgan kishi o'sha til madaniyati, tili bilan aloqasi natijasi muloqotda yuzaga kelayotgan yangi so'zlar, fan texnika, ilmiy, adabiy, iqtisodiy aloqalar va ularning rivoji natijasida yuzaga kelayotgan yangi terminlar, bir tildan boshqa bir tilga turli ta'sirlar yordamida masalan qo'shiqlar, kinolar va hokazolar bilan izohlash mumkin.

1.2 Xorijiy til grammatikasini qiyosiy o'rgatish usullari.

Yangi o'rganilayotgan xorijiy til grammatikasini o'rgatishning bir necha metodlari mavjud. Chet tillarini o'qitish metodikasining rivojlanish tarixida qo'llanilgan metodlarni turli turlarini guvohi bo'lamiz. Xususan, chet tilini qiyosiy o'rgatish ma'lum darajada o'z ona tili grammatikasi yaxshi o'zlashtirgan guruhlariga o'rgatish chet tili grammatikasini tez o'zlashtirish, qo'llash o'rinlariga ko'nikma hosil

qilishning samarali usullaridan hisoblanadi. Masalan: italyan tili grammatikasida sifatlarning egalik va ko'rsatish sifatlari deb nomlangan turi mavjud bo'lib, bu o'zbek tili grammatikasida qo'llanilishi bo'yicha sifatning bu turi kishilik va ko'rsatish olmoshlariga mos keladi. Bunda o'qituvchi talabalarga sifatning bu turlari o'zbek tili grammatikasi nuqtai nazaridan kishilik va ko'rsatish olmoshlari bilan ishlatishi bir xilligini aytish bilan yuzaga keladigan muammolarning oldini oladi.

Chet tillarini o'rgatishda qo'llanilgan metodlar: tarjima, to'g'ri, Garold Palmer, Uest kabi metodlari qo'llanilgan. Tarjima metodi ikki ko'rinishida: grammatik tarjima va leksik tarjima turlariga ajratiladi. Grammatik tarjima metodining asosida grammatikaga tarjimaga ko'p ahamiyat berilgan. Bu metod jonli tilga o'tmaydi, faqat diqqat, e'tibor shakliga qaratilib, mazmunga ahamiyat berilmaydi. Leksik tarjima metodi chet tili o'rgatishda tahlil va tarjima qilishni asos qilib olgan. Unda talabalar so'zlarni, grammatikani esda qoldirishlari zarur bo'lgan edi. Leksik tarjima metodi chet tili o'qitilganda matnni barchasi ham tushunarli bo'lavermagan. To'g'ri metod tarjima metodiga qarama-qarshi vujudga kelgan. Bu metodni to'g'ri deb atashga sabab chet tilidagi so'z, tushuncha to'g'ridan to'g'ri ona tili yordamisiz o'rgatilgan. Bu metod orqali chet tilini o'rganishda asosiy yo'nalish malaka va ko'nikmalarni hosil qilishga gapirishni, o'qishni, tinglab tushunishni o'rgatishga qaratilgan. To'g'ri metod chet tilini aloqa vositasi sifatida o'rgatish fikrini ilgari surgan bu fikr o'z vaqtida ijobiy foyda bergan. Chet tili o'qitish ongli bo'lmagan, yozuvga kam ahamiyat berilgan, ona tili qo'llanmagan, grammatika inkor etilgan. Bular metodning salbiy tamonlaridandir. Garold Palmer metodida tinglab qabul qilish, taqlid qilishga yodlab o'rgatishgan asoslangan edi. Uest metodida esa so'z ma'nosini ochishda ona tili, tarjimani qo'llashga qarshilik qilmaydi.

Hozirda chet tilini o'rgatishning zamonaviy o'qitish metodlari mavjud bo'lib ular: audio - lingual, audio – visual, taqqoslash kabilareni o'z ichiga qamrab oladi. Audio – lingval metodida quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi. Og'zaki nutq yozma nutqdan oldin o'rgatilsin, talaffuz namunasini ko'rsatish va taqlid qilish, o'rgatilgan gaplarni tuzilishi bo'yicha eslab qolish, yozuvda faqat og'zaki nutqda o'rganilgan

materiallarni berish , qiyinchiklarni asta- sekin berish, faqat amaliy mashqlar bajarish, talabalarning darsdagi 15% vaqtini o'rganilgan materialni tushuntirishga, qolgan 85% vaqtini esa tinglash, gapirish bo'yicha mashq bajarishga ajratish. Audio – visual metod chet tilida o'rganilayotgan hamma til materiallarini rasmini yoki ekranda ko'rsatish va tinglatish orqali chet tilini o'rgatadi. Bu usul juda samarali usullardan biri hisoblanadi. Chunki talaba o'qib bilim olganda 25% yodda saqlab qolsa eshitib o'rganganda 40% yodda saqlab qolsa, ham o'qib ham eshitib 50% bilimlarni qo'lga kiritisa, talaba audio – visual metodi orqali ham o'qib, ham ko'rib, ham eshitib 75% yodda saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Taqqoslash metodi chet tilini o'rganishning samarali usuli sanaladi. Bunda asosan ikki xil yo'nalish mavjud.

1. Ongli taqqoslash usuli.
2. Ongli amaliy, ongli kommunikativ usuli.

Ongli taqqoslash metodida asosan o'n sakkizinchi asrning ikkinchi yarimida rus olimi F. N. Buslayev asos soldi. Hozirgi davrda metod turli mamlakatlarda rivojlanib bormoqda. Taqqoslash usulining asosiy tamoyillari quyidagilar:

1. Til materiallarini qo'llash yo'llarini ularning o'zlashtirish davrida anglash.
2. Ta'lim mazmunini til shakli bilan bog'lash.
3. Til materiallarini taqqoslash orqali o'rgatish.
4. Nutq faoliyatining hamma turlarini bir vaqtning o'zida o'rgatish, rivojlantirish.
5. Aktiv, passiv til materiallarini chegaralash.

Ona tili onglilik tamoyilini amalga oshirishning asosi bo'lgan. Hozirda xorijiy tilni qiyoslab o'rgatish usulining yangi tamoyillari o'rta tashlandi. Bunga ko'ra quyidagi tamoyillar:

1. Chet tilini o'rgatish va o'rganishda ilmiy yondoshish;
2. Tilshunoslik, psixologiya, psixolinguistikadan keng foydalanish;
3. Til materialini ma'lum qonun asosida tanlash va o'rgatishning ketma – ketligini belgilash;
4. Til materialini ilmiy qonun asosida tahlil qilish;

5. Italyan tilini o'rgatishni nutq vaziyatlari asosida olib boorish;
6. Tinglash, ko'rish vositalarini keng qo'llash.

Bu usuldan foydalanish yo'lga qo'yilgan va bu usulning quyidagi belgilarini ko'rsatadi;

1. Chet tilini o'qitishda amaliy yo'nalishda bo'lishligi;
2. Chet tilini o'rgatish kommunikativlik asosida bo'lishi;
3. Til materiallarini o'rgatishni nutq namunalari majmuida tashkil qilish;
4. Chet tilini o'rgatishda xar tamonlama yondoshish;
5. Chet tilini o'rgatishni mumkin qadar tezlashtirish, ya'ni a) o'rgatish kommunikativlik yo'nalishida bo'lishi, b) darsni unumli tashkil qilish, d) metod, yo'l, usullarning turlicha bo'lishi, e) audiovisual (tinglash, ko'rish) vositalarini keng qo'llash, Aktiv metodni ongli kommunikativ metod deb ham yuritilmoqda. Bizning fikrimizcha, hozir ongli amaliy metod keng qo'llanilmoqda. Unda og'zaki kirish kursi asos qilib olingan.

I bobga xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashiz joizki,italyan tilini o'rganayotgan o'zbek talabalarning tilni chuqur, tez, mustahkam o'rganishlari uchun grammatika ahamiyati beqiyos sanalib, u talaba bilimlarining poydevori bo'lmog'i lozim. Shu sababli italyan tilining grammatikasini o'rgatishning eng tezkor va talabalarning tushunishlari uchun qulay bo'lgan tilshunoslikning morfologiya bo'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tabiiyki, morfologiya grammatikaning tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bular hisobga olinib italyan o'qituvchilari yaratayotgan o'quv qo'llanmaning asosi morfologiya ekanligidir. Buning asosiy sababi morfologiya orqali tilni tez va aniq, to'g'ri grammatik qoidalar orqali o'rgatish mumkinligida bo'lsa,ikki tilni qiyoslab talabalarga o'rgatish ijobiy, samarali usul sanalib, bu italyan tilini yanada tez o'rganish, qo'llanish o'rinlarini va ko'nikma hosil qilishga katta yordam beradi.

II BOB

ITALYAN VA O'ZBEK TILLARI SO'Z TURKUMLARINING QIYOSIY TAHLILI

Italyan va o'zbek tili turli xil tili oilalariga mansubligi tufayli ularning grammatikasida o'xshash va noo'xshash tamonlar va farqlar mavjud. Italyan va o'zbek tillari so'z turkumlarini qiyoslab ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida so'zlarning anglatgan ma'nolariga ko'ra, gapdagi vazifasiga ko'ra yoki gapdagi biror ma'no vazifasiga ega bo'lish yoki ega bo'lmasligiga ko'ra quyidagicha turkumlarga ajratamiz.

- 1) Mustaqil so'z turkumlari: ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ravish.
- 2) Yordamchi so'z turkumlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.
- 3) Alohida olingan so'z turkumlari: undov, taqlid, modal so'zlar.

Italyan tili so'z turkumlari ikki turga o'zgaradigan va o'zgarmaydigan so'z turkumlaridan tashkil topgan.

I. O'zgaradigan so'z turkumlari (Le parti del discorso variabile). Ular turlanadi, tuslanadi, shaxs-sonda va roddada moslashadi masalan: il libro- i libri, (kitob-kitoblar) la casa bella - le case belle (chiroyli uy – chiroyli uylar sifat otga birlikda ham ko'plikda moslashayapti.) sono andata a Tashkent - andiamo a Tashkent (men Toshkentga bordim- Toshkentga borayapmiz, roddaga moslashayapti va zamon ko'rsatgichlariga qarab tuslanayapti.) O'zgaradigan so'z turkumlariga:

- 1) Artikl - Articolo (il, lo, la, l', l, gli, le, uno, un, una, dei, degli, delle).
- 2) Ot – Nome (nomi propri, comuni, collettivi, concreti e astratti).
- 3) Sifat – Aggettivo (qualificativa, determinative: possessive, dimostrativo).
- 4) Olmosh - Pronome (pronomi personale, possessive, dimostrativi, indefiniti, relative, interrogative esclamativi, numerali).

5) Fe'l - Verbo (modi finite, indicativo: presente, passato prossimo, imperfetto, trapassato prossimo, passato remoto, trapassato remote, future semplice, future anteriore, congiuntivo, condizionale, imperativo, modi infiniti: infinito, participio, gerundio).

II. O'zgarmaydigan so'z turkumlari (Le parti del discorso invariabile). Bu so'z turkumlari gap tarkibida odatda o'zgarishmaydi va ular so'zni so'zga, gapni gapga bog'lashga xizmat qilishadi. O'zgaradigan so'z turkumlariga :

1) Avverbio – Ravish (avverbio di modo, avverbio di luogo, avverbio di tempo, avverbio di quantita', avverbio di giudizio, avverbio interrogative).

2) Preposizione – Predloglar (di, a, da, per. In, su, tra, fra).

3) Congiunzione – Bog'lovchilar (conguinzioni coordinate, subordinate)

4) Undov so'zlar - Interiezione (semplici, composte, improprie).

2.1Italyan tili o'zgaradigan so'z turkumlarining o'zbek tili bilan qiyosiy tahlili.

Italyan tilida o'zgaradigan so'z turkumiga kiruvchi **artikl** so'z turkumi o'zbek tili grammatikasida mavjud emas. Artikl haqida o'zbek guruhlarida tushuncha berish uni tushuntirish qiyin chunki uning ekvivalenti deb bersa bo'ladigan biron bir muqobil variantni o'zbek tilida topa olish qiyin. Shunday ekan o'quv qo'llanmada o'zgaradigan so'z turkumining birinchi vakili artiklni tushuntirishga harakat qilamiz. Artikl ot oldida qo'llaniladigan va o'zidan oldin keladigan otni tavsiflash uchun ishlatiladigan grammatik kategoriya hisoblanadi. Ot bilan birga son (birlik va ko'plik) va rodga (mujskoy va jenskiy)moslashadi. Italyan grammatikasida artikl uchga bo'linadi.

1) Articolo determinative – Aniq artikl: il, l, lo, gli, la, le. Bular so'zlovchi gapirayotgan tanish kishi yoki narsani bildiruvchi ot bilan birga kelishini tushuntirgan holda uni misollar orqali mustahkamlash zarur hisoblanadi. Masalan: la cucina e'

morbid - yostiqlik yumshoq, il gatto sta miagolando - mushuk miyovlayapti. La ciotola e' stata rotta dal vento - shamol tufayli piyola sindi.

Talabalarda artiklni ishlatish bo'yicha ko'nikma hosil qilish uchun bunga doir ko'p mashqlar ishlashni talab etadi. Talaba yangi notanish so'zlarni aniq artikli bilan yodlash orqali artiklni ishlatish uchun o'zida ko'nikma hosil qilib borishi mumkin.

2) Articolo indeterminativo – Noaniq artikl un, uno, una. Bular so'zlovchi gapirayotgan notanish kishi yoki narsani bildiruvchi ot bilan birga keladi. Noaniq artiklni o'zbek tilida ba'zi gaplarda shubha, gumonni anglatuvchi qandaydir, bir so'zlari bilan berish mumkin. Masalan: Maria ha un gatto. Mariyaning mushugi bor. (lekin mushugi qanaqaligini bilmaymiz.) Ha sentito una voce strana - U g'alati ovoz eshitdi. (Ovoz kimnikiligini bilmaymiz.)

3) Articolo partitivo – Qisman artikl del, dello, dei, degli, della, delle. Bular aniq artikl va "di" predlogining qo'shilishi natijasida yasaladi. Noma'lum hajmni bildirgan ot oldida qo'llanilib rod va sonda moslashadi. Artikllarning qanday holatlarda ishlatilishi talabalarga to'liq tushuntirishni talab qiladigan mavzu sanaladi. Buni sababi o'zbek tili grammatikasida bu kategoriyaning mavjud emasligidadir. Aniq artikllar doim shu xolatlarda ishlatiladi: otni aniqlovchisi bilan kelsa ya'ni otni tavsiflasa; Il signor Bianchi- janob Bianki, i miei zii - mening to'g'alarim, la sorella maggiore - katta opa, il fratello minore - kichkina aka va shu kabilar. Qarindoshlikni bildiradigan otlar: il padre - ota, la madre - ona, il zio - amaki, la zia - amma, il fratello-aka, la sorella-opa. Egalik olmoshlari bilan kelganda: il mio gatto - mening mushugim, la mia macchina – mening mashinam va shu kabilar.

Vaqt iboralari oldida: il 15di novembre e' il mio compleanno - 15 noyabr tug'ilgan kunim. La primavera – Bahor. L'inverno – qish. Quydagi otlar oldidan har doim artikl qo'llaniladi: katta orollar oldidan: la Sardegna, la Sicilia- Sardenya, Sitsilya. Viloyatlar oldidan: L'Umbria, il Lazio- Umbria, Latsyo

Davlat nomlari oldidan: L'Italia, la Russia, lo Stati Uniti-Italya, Rossiya,Amerika.
Qit'alar nomi oldidan: l'Europa, l'Asia - Yevropa, Osiyo.
Tog' nomlari oldidan: le Alpi, gli Appenini - Alp, Appenin.
Daryo nomlari oldidan: il Po, l'Arno, il Reno - Po, Arno, Reno.
Ko'llar: il Trasimeno, il Garda- Trazimeno, Garda.
Artikl quyidagi halatlarda ishlatilmaydi:
atoqli otlar oldidan: Massimo, Giorgio, Giovanna, Berta, Paolo, Paola.
Qarindoshlik nomlarini bildiradigan otlar bilan birga kelgan egalik olmoshlari
oldidan "loro" III shaxs ko'plik formasidan tashqari: mio padre - dadam, la loro
madre - ularning oyisi, mio fratellino - mening ukam.
Bundan,tashqari shunday otlar borki ular artikl olmaydi:
Masalan: San Fracesco, suora Maria, Don Giovanni.

Artikllar gap tarkibida odatda fe'ldan keyin kelganda o'zbek tili grammatikasi bo'yicha tushum kelishigi qo'shimchasini beradi. Masalan: Il cane ha costretto il gatto a rubare la carne. It mushukni go'shtni o'g'irlashga majbur qildi.

Ot italyan tilida ham o'zbek tilida ham predmetlik ma'nosini ifodalagan va grammatik rod, son,egalik, (kelishik) kategoriyalari bo'lgan mustaqil so'z turkumi sanaladi. Ikki tilda ham ot chi ? cosa ? quando? Kim ? nima? Qayer? so'rog'iga javob beradi. Ularning morfologik belgisida farq mavjud bo'lib, bu o'zbek tilida otlar son, egalik, kelishik kategoriyalarida ko'rinsa, italyan tilida kelishik kategoriyasini odatda predlog va ba'zan artiklda ko'rish mumkin. Bu kabi farqlarni solishtirgan holda talabalarga tushuntirish lozimligini ta'kidlash kerak. Bunda o'qituvchi doskaga misol keltirib tushuntirib berishi maqsadga muvofiqdir. Masalan: men kapalakni ko'rdim.Ho visto la farfalla. Men maktabga bordim. Sono andata a scuola. Birinchi gapda kapalakni so'zidagi tushum kelishigi qo'shimchasi "-ni" italyan tilida "la" aniq artikli orqali ifodalanayapti. Ikkinchi gapdagi maktabga so'zidagi jo'nalish kelishigi qo'shimchasi "-ga" italian tilida "a"predlogi orqali namoyon bo'layapti. O'zbek tilida egalik qo'shimchalari ot tarkibida kelsa italyan tilida aksincha, egalik olmoshi otdan avval alohida kelganini guvohi bo'lamiz. Masalan: Bolalaringizga –

lar,-ingiz,-ga son, egalik, kelishik qo'shimchalari bitta ot tarkibida ai tuoi bambini –i –son (ko'plik)tuoi – egalik olmoshi, a –predlog. Ishchilarmizni –lar son ko'plik , -imiz –egalik, -ni- kelishik (tushum kelishigi). Le nostre serve – e son ko'plik,nostre – egalik olmoshi, le artikli (aniq)orqali ifodalaniladi.

Ikki tilda otlarning grammatik xususiyatiga ko'ra bo'linishi turlicha. Italyan tilida otlar to'rt turga bo'linadi ular: 1) Nomi propri – atoqli otlar 2) Nomi comuni – turdosh otlar 3) Nomi collettivi- jamlovchi otlar 4) Nomi concreti e astratti – konkret va abstrakt otlar. O'zbek tilida italyan tilidan farqli ravishda otlarning atoqli va turdosh turi mavjud bo'lib, jamlovchi, konkret va abstrakt otlar turi turdosh otlar tarkibiga kirib ketadi. Ushbu jihatlarni mavzu tushuntirilayotgan paytda o'qituvchi ta'kidlab, talabalarni bundan xabardor qilishi lozim.

Talabalarga otlarda rod kategoriyasini tushuntirish ahamiyatli mavzulardan biridir. O'zbek tilida rod kategoriyasi mavjud bo'lmaganligi sababli o'zbek talabalarida bu mavzu yuzasidan bir qancha muammolar mavjud. Italyan tilida ikkita mujskoy va jenskiy rod mavjud bo'lib – o bilan tugaydigan otlar mujskoy rodga tegishli va uning ko'plik qo'shimchasi – i, hisoblanadi,- a bilan tugaydigan otlar jenskiy rodga tegishli bo'lib, uning ko'pligi – e bilan ifodalaniladi. Masalan: il libro - kitob, i libri – kitob – kitoblar, la borsa – le borse, sumka- sumkalar chunki – e bilan tugaydigan ham mujskoy ham jenskiy rodga tegishli otlar mavjud masalan: il fiore, la senape. Birinchi ot mujskoy rodga tegishli bo'lsa ikkinchisi jenskiy rodga tegishli otdir. Italyan tilidagi ba'zi otlar jenskiy rod formasini o'zgacha usul bilan yasaydi. O'zbek tilida esa bular erkak va ayol jinsi tipidagi so'zlar sanaladi. Masalan:

Machile	mujskoy	Femminile	jenskiy
Il re	qirol	la regina	qirolicha
il toro	ho'kiz	la mucca	sigir
il gallo	xo'roz	la gallina	tovuq
il cane	it	la cagna	tozi

O'qituvchi bu holatga talabalarning o'zlariga mustaqil misol tipishni shu vaqtda so'rasa, talabalar qiyoslab o'rganishga yanada ko'proq qiziqishadi. Ba'zi mujskoy roddagi otlar jenskiy roddagi otlardan mutloq o'zgacha shaklga ega:

Maschile	mujskoy	Femminile	jenskiy
L' uomo	erkak	La donna	ayol
il padre	ota	La madre	ona
il fratello	aka	Ia sorella	opa
il marito	er	Ia moglie	xotin
il genero	pochcha	la nuora	yanga

Ba'zi hayvonlar nomlarini anglatgan otlar ikkala ya'ni mujskoy hamda jenskiy rodlarda bir formaga ega bo'ladilar. Ularni qaysi jinsga mansubligini aniqlash uchun bunday nomlardan so'ng 'femmina' yoki 'maschio' so'zlari yoziladi va o'zbek tilida ham ba'zi otlar xuddi shunday ishlatiladi. masalan: la tigre maschio – la tigre femmina erkak yo'lbars ayol yo'lbars. Otlarda ko'plik shakli. O'zbek tilida otlarga – lar qo'shimchasi orqali ko'plik shakli hosil qilinsa, italyan tilida rodga qarab ko'plik yasaladi mujskoy rodga tegishli bo'lgan otlar – i qo'shimchasi orqali ko'plik shaklini xosil qiladi lekin – ca va – ga bilan tugaydigan mujskoy roddagi otlar – chi va – ghi ko'rinishida ko'plikka aylantiriladi masalan: il monarca – i monarchi, lo stratega – gli strateghi. Jenskiy roddagi otlar ko'plikda – e qo'shimchasi bilan yasaladi masalan: la mappa – le mappe (xarita- xaritalar). Ammo – ca va – ga bilan tugaydigan jenskiy roddagi otlar – che va – ghe ko'plik shakliga o'zgaradi, masalan: la banca - le banche la collega – le colleghe (parta – partalar, hamkasaba - hamkasabalar) o'zbek tilidan farqli ravishda italyan tilida ot so'z turkumidagi ba'zi so'zlar birlik formada mujskoy rodga bo'lsa ko'plik formada esa jenskiy rodga bo'ladi. Masalan:

Singolare	birlik	Plulare	ko'plik
il ginocchio	tizza	Le ginocchia	tizzalar
il braccio	qo'l	Le braccia	qo'llar

il labbro	lab	Le labbre	lablar
-----------	-----	-----------	--------

Italyan tilida xuddi o'zbek tilidagidek ba'zi otlar faqat birlik formasida ishlatiladi. His - hayajon, narsa predmetning sifatini va holatini ifodalaydi. Masalan: coraggio, pazienza, fame, sete, sonno (mardlik, sabr toqat, ochlik, chanqoqlik, uyqusirash). Biron bir metal yoki biron bir kimyoviy elementni anglatganda: l'ossigeno, l'oro (kislorod, oltin). Oziq ovqatlar nomlarini anglatuvchi otlar: il latte, il pane, il pepe (sut, non, qalampir).

Italyan tilida ba'zi otlar faqat ko'plik formada ishlatiladi: i pantaloni, gli occhiali, le forbici (bryuk ko'zoynak, qaychi). Lekin o'zbek tiliga birlik shaklida tarjima qilinadi va har doim birlik formada ishlatiladi.

Italyan tilida ham xuddi o'zbek tilidagidek ot yasash suffiks, prefiks va ikki yoki undan ortiq so'zlarni qo'shish orqali amalga oshiriladi. Masalan: ferro+via =ferrovia, temir+yo'l=temiryo'l, capo+stazione=capostazione, bosh+vokzal =bosh vokzal, fiore+aio=fioraio, gul+chi=gulchi, ascoltare – ascoltatore, eshitmoq-eshituvchi. O'zbek tili grammatikasi yordamida italyan tili ot so'z turkumining tushuntirilishi talabalarning shu so'z turkumi bo'yicha qiyinchililarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Sifat predmetning doimiy belgisini ifodalaydigan mustaqil so'z turkumi bo'lib, odatda predmetning rangini, hajmini, shaklini, mazasini, harakteri, psixik holati o'rin yoki vaqtga munosabati kabilarni anglatadi. Masalan: bianco- oq, grande - katta, rotunda - yumaloq, buono - yaxshi, amaro - achchiq, cattivo - yomon, allegro - sho'x, content – xursand. Italyan tilida xuddi o'zbek tilidagidek sifatlar ikki guruhga bo'linadi. Gli aggettivi qualificativi va gli aggettivi determinative. Bularni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilsak sifatlovchi va aniqlovchi sifatlar deyishimiz kerak, ammo ularni ishlatilish vazifasiga ko'ra o'zbek tilidagidek asliy va nisbiy sifatlar deb nomlasak xato bo'lmaydi. Italyan tilida gli aggettivi determinative yani aniqlovchi sifatlar ikki guruhga bo'linadi: gli aggettivi possessivi – egalik sifatlari va gli aggettivi dimostrativi – ko'rsatish olmoshlari. Ammo o'zbek tilida bunday sifat kategoriyasi

mavjud emas va bular egalik va ko'rsatish olmoshlari orqali ifodalaniladi. Masalan: questa casa - bu uy, la mia casa - mening uyim, quella sciarpa – anavi sharf, la tua sciarpa - sening sharfing . Endi buni o'zbek tilida sintaktik tahlil qiladigan bo'lsak mening , sening so'zlari qaratgich aniqlovchiga to'g'ri keladi, kimning ? so'rog'iga javob bo'lganligi tufayli sifat so'z turkumiga tegishli bo'ladi. Italian tilida sifat asosan ikki xil ko'rinishda ifodalaniladi: 1) Aniqlovchi sifatida – attributive . Bunda sifat otga to'g'ridan to'g'ri birikib otni aniqlab keladi. Masalan: una casa bella- chiroyli uy, un fantasma pallido - oppoq ruh, una lezione utile- foydali dars, un cantante noto – taniqli qo'shiqchi. 2) Kesim vazifasida - predicative . Bunda sifat otga kesim yordamida bog'lanadi. Masalan: questo ragazzo mi sembra un po' strano- bu bola menga biroz g'alati tuyilayapti. Ushbu gapni o'zbek tili grammatikasi bo'yicha tahlil qilsak hol vazifasiga to'g'ri keladi, ammo bu italian tilida kesim vazifasida kelmoqda. Quel film era intaressante. O'sha film – qiziqarli. Bu o'rinda sifat kesim vazifasida kelmoqda.

Italian tilida ko'pgina sifatlar xuddi o'zbek tilidagi kabi ot yoki fe'l so'z turkumlariga oid so'zlardan quyidagi sifat yasovchi qo'shimchalar yordamida sifatlar yasaladi. – **abile** birinchim tuslanishdagi –are bilan tugagan fe'llarga qo'shiladi. O'zbek tilida bu qo'shimcha **–li** va **–digan** sifatdash qo'shimchasiga mos keladi. Masalan: mangiare – mangibile, yemoq – yeyimli, amare – amabile, sevmok – sevimli, cantare – cantabile, kuylamoq – kuylab bo'ladigan . **–ibile** bu qo'shimcha asosan II va III tuslanishdagi –ere, -ire bilan tugaydigan fe'llarga qo'shiladi. Masalan: prevedere – prevedibile, oldindan ko'rmoq - oldindan ko'rib bo'ladigan, aprire – apribile, ochmoq – ochib bo'ladigan. Bu qo'shimchalar ham o'zbek tilidagi sifatdash shakli qo'shimchasi orqali ifodalangan. **–evole** mutare – mutabile o'zgarmoq – o'zgaruvchan. Ushbu misoldagi –chan qo'shimchasi so'z yasovchi qo'shimchasi orqali ifodalangan. Otlarga qo'shib sifat yasovchi qo'shimchalarga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin. **–oso** lavoro- lavoroso, – **chan** ish – ishchan, studio - studioso, **–li** o'qish - o'qimishli - **istico** artista – artistico, san'at – san'atkorono **–ale** centro- centrale, forma – formale, **–iy** markaz- markaziy, **–li** shakl – shaklli -

ano mondo – mondano , - viy dunyo - dunyoviy , - ico politica – politico –iy siyosat – siyosiy, - are sole – solare –li quyosh – quyoshli.

Geografik nomlarni yasovchi qo'shimchalar:

-itano/ etano Palermo – palermitano, Palermo –palermolik

-ese Ungheria – ungherese , Ungriya – ungriyalik , torino –torinese, Turin- turinlik

-ino Parigi- parigino , Firenze – fierentino, Florensiya – florensiyalik

-ano Roma – romano, Rim – rimlik.O'zbek tilida italyan tilidan farqli ravishda –lik

so'z yasovchi qo'shimchasi orqali yasaladi. Italyan tilda sifatlar sifatlovchi va

aniqllovchi sifatlarga ajratiladi. Sifatlovchi sifat otning qandayligini ifodalaydi.

Masalan: un' anello bello, perzioso, antica e ecc. chiroyli , qimmatbaho, qadimiy va

hik uzuk. Italyan tilida rod kategoriyasi mavjudligi tufayli sifatlar otlar bilan kelganda

otga moslashadi, so'z qo'shimchalari ham rod va songa qarab o'zgaradi va bu katta

ahamiyat berilishi kerak bo'lgan tamonlardan hisoblanadi. Chunki ayrim sifatlar

faqatgina son kategoriyasida o'zgaradi ya'ni ikki rodga ham bir xil ko'rinishga ega

bo'ladi va faqat birlik yoki ko'plik formasi orqali farqlanadi. Masalan: le giacche

eleganti , xushbichim pidjak, il costume elegante –xushbichim kostyum. Boshqalari

faqatgina ko'plikda rod kategoriyasini o'zgartiradi. Masalan: entusiasta birlikda

entusiasti ko'plik mujskoy rod, entusiaste ko'plik jenskiy rodga. Yana ba'zilari

o'zgarmaydigan sifatlar hisoblanib, ular blu, viola, (ko'k, siyoh) kelib chiqishi ot

bo'lgan rangni ifodalovchi sifatlar, rangning ortib borishini ifodalovchi sifatlar,

masalan: una gonna rosso fuoco- olov rangli yubka, predlog + ravishdan yasalgan

sifatlar perbene, dabbene, dappoco, ammodo.(yaxshi, oddiy, qobilyatli,

xushmuomala.) anti+ otdan yasalgan ayrim sifatlar antiguerra – urushga qarshi,

antimafia- mafiyaga qarshi , kelib chiqishi chet tilidan bo'lgan so'zlarla musica jazz-

jazz musiqasi.

Italyan tilida sifat aniqllovchi va ot kesim vazifasida kelishidan qat'iy nazar shaxs va

sonda moslashadi. Masalan: Una casa favolosa- ertakona uy, questa casa e' favolosa

– bu uy ertakonadir.

Asliy sifatlar otdan oldin kelsa gap ko'chma ma'noda, keyin kelsa o'z ma'nosida qo'llaniladi. Masalan: E' un gran' uomo. (qo'li uzun ,boy odam.) E' un uomo grande. (ubaquvvat, kelishgan odam.)

Italyan tilida nisbiy sifatlar turi bo'lgan egalik sifatlari, o'zbek tilga egalik olmoshlariga mos keladi va ular sintaktik jihatdan tahlil qilganda o'zbek tilida qaratgich aniqlovchini ifodalaydi. Masalan: questo di mio, e quello di tuo. Bu meniki, anavi seniki. Yana italyan tilidagi ko'rsatish sifatlari o'zbek tili grammatikasi bo'yicha ko'rsatish olmoshlari bilan teng. Gli aggettivi indefinite – Noaniq sifatlar otga qoshilib miqdor va sifat ma'nosini ifodalaydi. Bu sifatlarning ko'pchiligi o'zbek tilida sifat so'z turkumiga to'g'ri kelsada , qolgan qismi belgilash jamlash olmoshi, bo'lishsizlik olmoshiga to'g'ri keladi. Masalan: Ogni persona ha il suo dovere- har bir odamning burchi bor. Ushbu gapda har so'zi o'zbek tilida belgilash olmoshi orqali ifodalanolmoqda. Non ha risposto nessuno- hech kim javob bermadi. Bunda hech kim so'zi o'zbek tili grammatikasi olmosh so'z turkumining bo'lishsizlik turi orqali ifodalangan. Devo raccogliere tutto – hammasini yigi'ishim kerak gapida bo'lsa “hammasini”so'zi belgilash jamlash olmoshi orqali ifodalanmoqda. Non sopporto a tale comportamento –bunday munosabatga chidolmayman. Aslida sifat vazifasini bajarmoqda.

So'roq sifatlari o'zbek tilida mavjud emas ammo bu o'zbek tilida so'roq olmoshlari bilan bir xildir. Miqdorni ifodalovchi sifatlar otdan anglashilgan ma'noning sonini ifodalash uchun xizmat qiladi ammo bu sifat turi ham o'zbek tili grammatikasida mavjud emas bu o'zbek tilida mustaqil so'z turkumi sonda ifodalaniladi. Son so'z turkumi italyan tilida mustaqil mavjud emas. Bu kabi farqlarni ko'rsatib, qo'llanilsh o'rinlarini talabalar yaxshi o'zlashtirishlari uchun talabalar bilan noan'anaviy dars metodlaridan foydalanish ham samarali natijalar beradi.

Olmosh italyan tilida mustaqil so'z turkumiga tegishli bo'lib, gapda ot, sifat, son, ba'zan ravish o'rnida ishlatiladi. Italyan tilida olmoshlar vazifasiga ko'ra yetti turga bo'linadi: pronomi personali, pronomi possessivi, pronomi dimostrativi, pronomi indefinite, pronomi relative, pronome interrogative – esclamativi, pronomi

numerali. O'zbek tilida olmoshlarning ma'no turlari yetti xil va ular: kishilik olmoshlari, o'zlik olmoshlari, so'roq olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, belgilash-jamlash olmoshlari, bo'lishsizlik olmoshlari, gumon olmoshlari. Ko'rganimizdek ikki tilde ham olmosh turlari soni bir xil, ammo ularlarning o'rtasida farqlar mavjud. Talabalarga olmosh so'z turkumini qiyoslab tushuntirishda italyan tilidagi pronome relative o'zbek tili olmosh so'z turkumida mavjud bo'lmagan tur bo'lib, bu olmoshning gapda ishlatilishi o'zbek tili gap qurilishiga mos kelmagani talabalar o'rtasida muammoli nuqta sanaladi. Talaba buni yaxshi o'zlashtirishi uchun ko'proq mashqlar ishlar, og'zaki o'qituvchilar tomonidan nutqda keng foydalanishi ko'nikma jarayonini tezlashtiradi. Umuman olganda olmoshlar ikki tilda ham fikrni ixcham bayon etish va nutqni o'rinsiz takrorlarni tozalash uchun xizmat qiladi.

SHAXS OLMOSHLARI.

BIRLIK

KO'PLIK

1shaxs **io** – men, **me/ mi, a me-** meni/ga **noi** – biz, **noi/ ci, a noi** – bizni/ga

2shaxs **tu** – sen, **te/ ti , a te** - seni/ga **voi** – siz, **voi/ vi , a voi-** sizlarni /ga

3shaxs **lui/lei-u, lui/lei, lo/la, a loro-** uni/ga **loro** – ular, **loro/li/le** – ularni/ga

Kishilik olmoshlari: o'zbek tilida ham, italyan tilida ham nutq qaratilgan shaxsni ko'rsatadi. O'zbek tilida kishilik olmoshlari bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishik, jo'nalish kelishigi, o'rin - payt kelishigi, chiqish kelishigi bilan keladi. Italyan tilida o'zbek tilidagidek kelishik kategoriyasi mavjud emas va kishilik olmoshlari quyidagicha ifodalaniladi:

SINGOLARE

PLURALE

I.Io

I.Noi

II.Tu

II.Voi

III.Lui/lei

III.Loro

O'zbek tilidagi kishilik olmoshlarining tushum kelishigi bilan kelishi italyan tilida predlogsiz keladi va ko'rinishi ham o'zgaradi. O'zbek tilidagi tushum kelishigida o'timli fe'l bilan kelgan va o'zbek tilida vositasiz to'ldiruvchiga to'g'ri keladigan shakli pronomi diretto deb ataladi. O'zbek tilida jo'nalish kelishigida o'timsiz fe'l bilan kelgan va o'zbek tilida vositali to'ldiruvchiga to'g'ri keladigan shakli pronomi indiretto deb ataladi va bu olmoshlar urg'u olgan holatda "a" predlogi bilan keladi va ular quyida keltirilgan:

PRONOME DIRETTO

PRONOME INDIRETTO

I.Mi/me

I.Ci/noi

I.Mi/a me

I.Ci/a noi

II.Ti/te

II.Vi/voi

II.Ti/ a te

II.Vi/ a voi

III.Lo/la/lui/lei

III.Li/le/loro

III.Gli/le

III.Gli/ a loro

O'zbek tilidagi kishilik olmoshlarining qaratqich kelishigi bilan kelishi italyan tilida alohida olmosh turi "pronomi possessivi" ko'rinishida beriladi, qolgan holatlarda, ya'ni o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalari italyan tilida predloglar orqali ifodalaniladi, masalan:

La mia amica e' bella. (pronomi possessive, I shaxs birlik).

Mening dugonam chiroyli. (Kishilik olmoshi + qaratqich kelishigi, I shaxs birlik)

Yana italyan tilida diretto va indiretto olmoshlarining birikishidan "**pronomi combinati**" qo'shma olmoshlar hosil qilinadi. Ammo bu o'zbek tilida mavjud emas va ular kishilik olmoshlari va kelishiklar orqali ifodalanadi, masalan:

Me lo portino – **menga uni** keltirsinlar.

Te lo dico io – ***senga uni*** men aytaman.

Glielo mostra Marco – ***unga uni*** Marko ko'rsatayapti

Yana italyan tilida diretto va indiretto olmoshlarining birikishidan “**pronomi combinati**” qo'shma olmoshlar hosil qilinadi. Ammo bu o'zbek tilida mavjud emas va ular kishilik olmoshlari va kelishiklar orqali ifodalanadi, masalan:

Me lo portino – ***menga uni*** keltirsinlar.

Te lo dico io – ***senga uni*** men aytaman O'zbek tilida ko'rsatish olmoshlari sodda olmoshlar: bu, shu, o'sha, ana, mana va qo'shma olmoshlar: ana o'sha, ana shu, mana shu, mana bu ko'rinishida bo'lsa, italyan tilida esa, qo'shma olmoshlar mavjud emas, masalan:

Quella casa appartiene ai Finzi- Contini.

Ana o'sha uy Fintsi- Kontiniga tegishli.

Gumon olmoshlari ikki tilda ham shubha va gumonni, noma'lum miqdordagi shaxs yoki predmetlarni ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek tilida gumon olmoshlari – “alla”: allakim, allanima, allaqayer, - “dir”: kimdir nimadir, qayerdir; va bir soni yordamida yasaladi: birov, bir nima, biror kim, biror narsa. Italyan tilida ham bir soni yordamida yasaladigan gumon olmoshlari bor, masalan: alcuno, taluno, ciascuno, qualcuno, nessuno, ognuno. Qolgan gumon olmoshlari quyidagilar: qualche – bir qancha, chicchesia – kim bo'lsaham xohlagan odam, qualuncue – har qanday, har qaysi, alquanto – qanchadir, molto – ko'p, poco – ozroq, nulla – hech nima, tutto – hammasi. Ammo bularning hammasi ham o'zbek tilida gumon olmoshlariga to'g'ri kelmaydi, masalan: ciascuno, ognuno, qualunque, chiunque olmoshlari. O'zbek tilida belgilash olmoshlariga, ba'zilar bo'lishsizlik olmoshlariga to'g'ri keladi. Bu yerda talaba yetarlicha qiyinchiliklarga duch keladi. Buni hal qilish uchun o'qituvchi va talabadan kuch talab qilinadi. Albatta darsda noan'anaviy usullardan, turli qiyosiy

mashqlardan foydalanib mavzuni tushuntirish samarali usullardan hisoblanadi. Italian tilida gumon olmoshlari nimani ko'rsatishiga qarab ikki xil bo'ladi pronomi di quantita' – miqdor olmoshlari

Pronomi di qualita' – sifat olmoshlar, ammo o'zbek tilida olmoshning bunaqa turi mavjud emas. nessuno, nulla olmoshlari o'zbek tili grammatikasida olmoshning bo'lishsizlik guruhiga kiradigan so'zlardir.

Italian tilidagi nisbiy olmoshlar o'zbek tilida mavjud emas, va ular otning o'rnida kelib ikkita sodda gap orasidagi munosabatni ta'minlash uhun xizmat qiladi, masalan: 1. Il libro e' molto bello. – juda chiroyli kitob

2. Tu mi hai regalato – sen menga sovg'a qilgan

Il libro che tu mi hai regalato e' molto bello.

Kitob qaysiki sen menga sovg'a qilgan juda chiroyli. Bu to'g'ridan to'g'ri tarjima, agar ushbu gapni o'zbek tili grammatik qoidalariga asoslanib to'g'irlasak, “sen menga sovg'a qilgan kitob juda chiroyli” bo'ladi. Birinchi tarjimadagi qaysiki so'zi o'zbek tilidagi so'roq olmoshiga to'g'ri kelsada, italyan tilidan o'zbek tiliga tarjima davomida bu so'z fe'l shakllaridan biri sifatdosh orqali ifodalanmoqda. Il quale, la quale nisbiy olmoshlari o'zlari tegishli bo'lgan ot bilan moslashadi va gapda ega yoki to'ldiruvchi vazifasida keladi, masalan:

La ragazza alla quale ho parlato di te.

Bu men sen haqingda gapirib bergan o'sha qiz.

Italian tilida “la ragazza” ega vazifasini bajarsada o'zbek tiliga tarjima qilganda, o'zbek tili grammatikasi bo'yicha bu so'z o'z funksiyasini yo'qotib, ega emas, kesim vazifasida keladi.

So'roq va his-hayajon olmoshlari italyan tilida mavjud bo'lsada, o'zbek tilida faqatgina so'roq olmoshlari bor.

Italyan tilidagi pronomi numerali ya'ni so'roq vazifasidagi olmoshlar o'zbek tilida mavjud bo'lmagan olmosh turi hisoblanadi, o'zbek tilida son mustaqil so'z turkumi bo'lib, italyan tilida son mustaqil so'z turkumi sifatida mavjud emas.

Fe'l italyan tilida so'z turkumi o'zgaruvchan so'z turkumiga kirib, boshqa gap elementlari bilan birga gap egasi haqida, uning tarafidan bajarilgan harakatni, holatini haqida malumot beradi. Gapda fe'l asosiy bo'lak sanalib, u so'z turkumlarini bir biriga bog'lab, ma'no berishga xizmat qiladi. O'zbek tili grammatikasi bilan italyan tili grammatikasi bo'yicha fe'l vazifasi bir xil, ularning tuslanish, zamon, mayl, shaxs – son kategoriyalarida ikki tilda noo'xshash tamonlar mavjud. Italyan tilida ikkita yordamchi fe'l mavjud bo'lib, “avere” o'zbek tilida ega bo'lmoq deb tarjima qilinadi. Ushbu yordamchi fe'lning ishlatilishi o'zbek tilida o'timli fe'lga to'g'ri keladi. Ammo ushbu yordamchi fe'l ba'zi harakat fe'llari bilan ham qo'llanilishi tufayli talabalar o'rtasida muammolar mavjud. Masalan: Ho dormito due ore. Men ikki soat uxladim. Italyan tilida bu o'timli fe'l bilan ishlatilmoqda, ammo bu o'zbek tilida o'timsiz fe'l sanaladi. Bu kabi istisno holatlarni talabalar yaxshi o'zlashtirishlari uchun bu kabi fe'llarni yod oloishlari zarur. Ikkinchi yordamchi fe'l “essere” o'zbek tilida o'timsiz fe'l bilan ekvivalent sanalsada, uning qo'llanilish o'rinlariga ko'ra o'zbek tili bilan farqlar mavjud. U majhul nisbat hosil qilishda, shaxssiz gaplar yasashda, o'zbek tilida mavjud bo'lmagan reflessiv fe'llarning o'tgan zamonini hosil qilishda ishlatiladi. O'zbek tilida gapda kesimlik xususiyatini beruvchi –dir yoki tire vazifasini italyan tilida essere fe'li bajaradi. Masalan: Sono studentessa . Men talabaman.

Italyan tilida ba'zi fe'llar har doim bir xil predloglar oladi. O'zbek tilida predloglar yo'qligi tufayli bu borada yetarlicha qiyinchiliklar mavjud. Bu qiyinchiliklarni yechish uchun visual metoddan foydalangan holda o'quv xonasida ma'lum bir burchak tashkil qilib, ushbu fe'llar bilan keladigan predloglarni yozib ko'rsatib qo'yish yordamida ko'nikma hosil qilish mumkin.

Italyan tilida fe'llarning tuslanishi uch turga: - are, - ere, - ire bilan tugaydigan fe'llarga bo'linsa, o'zbek tilida – moq harakat nomi bilan tugaydi. Italyan tilida noto'g'ri fe'llar mavjud bo'lib, ularning tuslanishi to'g'ri fe'llardan farq qiladi. Yaratilayotgan o'quv qo'llanmada noto'g'ri fe'llar ilovada keltirilgan. Bu fe'llarni yodlash zarur.

Italyan tilida xuddi o'zbek tilidagidek hozirgi, o'tgan, kelasi zamonlarga bo'linadi. O'zbek tilida hozirgi zamon ikki turga hozirgi kelasi va hozirgi davom fe'llariga ajralsa, bu italyan tilida (presente indicativo) hozirgi zamon ishlatilish o'rinlariga kiradi. Hozirgi zamon davom fe'li bo'lsa italyan tilida “gerundio” ga to'g'ri keladi. O'tgan zamon (passato prossimo) italyan tilida o'tgan davomiy zamon (imperfetto), yaqin o'tgan zamon (trapassato), uzoq o'tgan hikoya (remoto) zamonlariga bo'linsa, o'zbek tilida o'tgan zamon besh turga bo'lingan. Bu kabi farqli jihatlarni aytib o'tish foydadan holi bo'lmaydi. Italyan tilida kelasi zamonning ikki turi kelasi zamon (futuro semplice) va murakkab kelasi zamon (futuro anteriore) ga ajratiladi. O'zbek tilida bo'lsa, kelasi zamon kelasi zamon maqsad va gumon fe'llari mavjud.

Italyan tilida mayllar o'zbek tilidan farqli ravishda ikki turga ajratilib va ular o'z ichida bir necha turlarni qamrab oladi. 1. il modo finito – aniq mayllar: indicative o'zbek tilida xabar mayliga, condizionale o'zbek tilida shart mayliga, imperative o'zbek tilida buyruq mayliga va congiuntivo hohish – istak mayliga to'g'ri keladi. Bu mayllar o'z navbatida zamonlarga ajratiladi. 2. il modo infinito – noaniq mayllar infinito o'zbek tilida harakat nomi, participio o'zbek tilida sifatdash, gerundio o'zbek tilida hozirgi zamon davom fe'liga mos keladi. Ko'rib turganingizdek aniq mayllar o'zbek tilida mayl kategoriyasi bilan mos kelmoqda, ammo noaniq mayllar o'zbek tilida fe'lning vazifadosh shakllariga va hozirgi zamon davom fe'li bilan to'g'ri kelishining guvohi bo'lmoqdamiz. Mayl kategoriyasi o'zbek tili bilan mos kelsada, uning ishlatilishida talabalarga tushunarsiz bo'lgan holatlar bor. Ayniqsa congiuntivo – hohish istak maylining zamonlardagi tuslanishi, uning qo'llanilishi yuzasidan o'zbek tili bilan farqlarning mavjudligi qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Italyan tilida fe'l nisbati uch xil: la forma attiva (aniq) va forma passive (majhul), va la forma

reflessiva (o'zlik)o'zbek tilida bo'lsa ular soni oltitaga teng. Nisbatlar soni o'rtasida farqlar mavjud. Italyan tilidagi shaxssiz forma faqat 3 shaxs birlikda ishlatiladi. Bu o'zbek tilida majhul nisbatga mos bo'ladi. Bu mavzularni dars davomida mashq va suhbatlar orqali mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

2.2 Italyan tili o'zgarmaydigan so'z turkumlarining o'zbek tili so'z turkumlari bilan qiyosiy tahlili.

Predloglar. Italyan tilida mavjud, ammo o'zbek tilida mavjud bo'lmagan grammatik kategoriyalardan biri predloglardir. Italyan tilida predloglar o'zgarmas so'z tutkumiga kiradi. O'zbek tilida bu kategoriya kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar bilan ifodalanadi. Italyan tilida predloglar uch turga bo'linadi:

- 1.Preposizione proprie: di, a, da, in, con, su, per, fra/tra.
- 2.Preposizione improprie: verso, senza, oltre, presso, sopra, dentro, contro.
- 3.Locuzioni prepositive:rispetto a, fuori di, accanto a, insieme con.

O'zbek tilida predlogning birinchi turi sof ko'makchilarga, kelishik qo'shimchalariga va ba'zilar vazifadosh ko'makchilarga to'g'ri keladi.

Italyan tilida

O'zbek tilida

- | | |
|--------------|---------------------------------------|
| • Di | - ning (qaratqich kelishigi) |
| • A | - ga (jo'nalish kelishigi) |
| • Da | - dan (chiqish kelishigi) |
| • In | ichida (vazifadosh ko'makchi) |
| • Con | bilan (sof ko'makchi) |
| • Su | ustida (vazifadosh ko'makchi) |
| • Per | uchun (sof ko'makchi) |

- **Fra/tra** **orasida** vazifadosh ko'makchi)

Birgina “di” predlogining yigirma bir xil holatda qo'llaniladi va ular o'zbek tiliga tarjima qilinganda turli xil grammatik kategoriyalarga tegishli bo'ladi:

- 1) Tasniflash: quella casa **di** Alberto – anavi Albertoning uyi.(qaratqich kelishigi)
- 2) Sabab: muoio di sonno – o'lgudek uyqum kelyapti.(ravish)
- 3) Tarkib, mazmun: lui sta scrivendo la lettera di nostalgia – u sog'inch**li** xat yozmoqda (shakl yasovchi qo'shimcha)
- 4) Holat: vado a casa di corso- uyga yugir**ib** boraman.(ravishdosh)
- 5) Yosh: una donna di quarantine- qirq yosh**lardagi** ayol. (chama son bilan)
- 6) Narsa, predmet: Zilola ha comprato una sciarpa di lana – Zilola bitta ipak**li** sharf sotib oldi. (sifat yasovchi)
- 7) Kelib chiqish: sono di Samarcanda – Samarqand**an**man. (chiqish kelishigi)
- 8) Qiymat, sifat: guarda, l'insegnante e' di mal' umore - qara, o'qituvchi yomon kayfiyatda. (holat ravishi)
- 9) Vaqt: marito lavorava di note e la moglie lavorava di giorno - er kechasi xotin esa kunduzi ishlardi. (bosh kelishik)
- 10) Butundan qism: una fetta di pizza- pitz**adan** bir bo'lak. (chiqish kelishik)
- 11) Ayb: era l'imputazione di omicidio che aveva avuto 1951³. 1951 yilda qotillik**ning** ayblanuvchisi edi. (qaratqich kelishik)
- 12) Qiymat, baho: una borsa di cinquanta mila sum - 50ming**lik** sumka(so'z yasovchi)
- 13) Hajm, o'lchov: un edificio di cinquanta piani - 50 qavat**li** bino. (so'z yasovchi)

³ Leonardo Sciascia “il giorno della civetta”49-bet.

- 14) Nomlanish: il paese dei bivacchi⁴- bivaklar shahri (qaratqich kelishik)
- 15) Qiyoslash: mi dava l'ambizione di riuscire a fare meglio degli altri - menga boshqalarga **qaraganda** yaxshiroq ishlashimga ilhom berardi⁵. (qiyosiy daraja)
- 16) Bir joydan harakat: usciva di casa alle quattro del mattino⁶ - tong sahar to'rtidan uy**dan** chiqib ketardi. (chiqish kelishik)
- 17) Bir joy bo'ylab harakat:camminiamo della spiaggia- sohil **bo'ylab** yuramiz.(vazifadosh ko'makchi)
- 18) Bir joyga yo'nalish: vado di qua - bu yerga boraman. (jo'nalish kelishik)
- 19) Bir joydagi holat: preferisco andare di la' - u yerga borishni afzal ko'raman (jo'nalish kelishik)
- 20) Ko'plik seroblik: una vita zeppo di sbagli- hatolar **bilan** to'lgan hayot (ko'makchi)
- 21) Yetishmovchilik: non parlare senza di logica – mantiq**siz** gapirma (ravish).

Ko'rib turganizgizdek birgina **di** predlogining o'zbek tilida bosh, qaratqich, jo'nalish, chiqish kelishiklarida, so'z yasovchi, shakl yasovchi, ko'makchi, vazifadosh ko'makchi, ravish kabi holatlarda kelmoqda. Ushbu mavzuni soddaroq tushuntirib, talabalar qo'llash o'rinlarini yaxshi o'zlashtirishlari zarur. Aks holda predlogni noto'g'ri qo'llash gap ma'nosining o'zgartirishi va suhbat mavzusini tushunarsiz holga keltirishi mumkin.

“A” predlogi asosan yo'nalish ma'nosini ifodalaydi va o'zbek tilida jo'nalish kelishigi bilan ekvivalent hisoblanadi. Quyida “a”predlogining qo'llanilish

⁴ Passeggiata italiana

⁵ Paolo Volponi “la fabbrica misteriosa”1370-bet

⁶ Natalia Ginzburg “Lessico familiare”903-bet

holatlarini va o'zbek tilida qaysi grammatik kategoriyaga mos kelishini ko'rib chiqamiz.

1) Bir joyga yo'nalish: Ogni primavera vado a Tashkent - har bahor Toshkent**ga** boraman. (jo'nalish kelishik)

2) Bir joydagi holat: io sapevo che erano tutti e due stavano a Milano- men ular ikkisi ham Miland**a** bo'lishganini bilardim⁷. (o'rin- payt kelishik)

3) Masofa: la casa degil student e' a due passi dalla statua di Amir Temur - talabalar uyi Amir Temur haykalidan **ikki qadam narida**. (vazifadosh ko'makchi)

4) Usul, holat: vado a mercato a piedi - magazinga **piyoda** boraman. (holat ravishi)

5) Chegara: ho prestato i soldi alla mia amica - **dugonamga** qarz berdim. (jo'nalish kelishik)

6) Vaqt: alle 20.30 Lorian Lippi e Remo Martini hanno caricato un uomo nella loro fiat⁸ - **20. 30 da** Lorian Lippi va Remo Martini bir odamni o'zlarining Fiatlariga yukladi.(o'rin- payt)

7) Sabab: lui ha conosciuto me, ad un matrimonio⁹-u meni bir to'y **sababli** tanigan.(vazifadosh ko'makchi)

8) Yakun: provvedimenti a sostegno della piccolo industria - kichik sanoatni qo'llab - quvvatlash **uchun** uyushtirilgan tadbir. (sof ko'makchi)

9) Aniq yosh: a 11 mesi lei camminava abbastanza bene – u 11 oy**ligida** yaxshigina yurardi. (o'rin- payt)

⁷ Natalia Ginzburg "Lessico familiare"940- bet

⁸ Saro Maretti "Pronto, commissario"Roma "Bonacci editore"1996 3- bet.

⁹ Leonardo Sciascia"il giorno della civetta" 47-bet.

10) Asbob- uskuna: riscaldamento a gasolio - dizel yoqilg'i isitgich. (bosh kelishik)

11) Sifat yoki o'zgacha ta'rif yoki tavsif: l'asciugacapelli ad alta fedelta'- ishonchli soch quritgich. (so'z yasovchi)

12) Taqsimlash: gli uccelli apparivano lontani a decine - o'nlab qushlar uzoqdan ko'rinardi. (chama son)

13) Cheklash: a mio avviso- mening fikrimcha .(modal so'z)

14) Baho va o'lcham: ho comprato un chilo di fico a due mila sum - bir kilo anjirni 2 ming sumga sotib oldim. (bosh kelishik)

15) kesim: prendere a modello - namunaga olmoq. (ko'makchi)

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek **a** predlogi asosiy qo'llanilishi o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigi bilan ekvivalent bo'lsada uning boshqa ishlatilish o'rinlarini bilish muhim sanaladi. Buni o'rgatish, ko'nikma hosil qilish har xil matnlar, asarlar va dialoglar o'qish davomida mustahkamlanib boriladi.

“Da” predlogi – dan deb o'zbek tiliga tarjima qilinadi va o'zbek tilida chiqish kelishigiga mos keladi. Quyida “da”predlogining qo'llanilish o'rinlari o'zbek tilida qaysi grammatik kategoriyaga mos kelishini ko'ramiz:

1) Bir joydan harakat: sono tornato da Bulungur- Bulung'ur**dan** qaytdim. (chiqish kelishik)

2) Bir joyga yo'nalish: vado da dentista¹⁰ - dentist**ga** boraman. (jo'nalish kelishik)

3) Bir joydagi holat: lui e' da suo amico - u o'rtog'**inikida**. (o'rin- payt)

¹⁰ Buttaroni S. Letteratura al naturale – R. : Bonacci 1992, 120 p.

4) bir bo'layotgan harakat: Po'lat e' uscito dalla finesra - Po'lat deraza**dan** chiqdi. (chiqish kelishik)

5) Nasl-nasab, kelib chiqishi: provengo da una citta da Uzbekistan - O'zbekistonning bir shahri**dan**man. (chiqish kelishik)

6) Vaqt harakatning boshidan: studio all'universita' da quattro anni - to'rt yil**dan buyon** universitetda o'qiyman.(ko'makchi vazifasidagi so'z)

7) Harakatning egasi: la borsa e' stata comprata da mia amica - sumka dugonam **tamonidan** sotib olingan. (vazifadosh ko'makchi)

8) Sabab: la barca e' stata travolta dalle onde - qayiq to'lqinlar tufayli ag'darildi. (ko'makchi vazifasidagi so'z)

9) Masofa: Bulungur si trova a quattordici chilometri da montagna - Bulung'ur tog'dan o'n to'rt kilometr **narida** joylashgan. (vazifadosh ko'makchi)

10) Sifat: Mario e' un ragazzo dai capelli impomatati- Mario sochlari tartibli yigit. (bosh kelishik)

11) Yakun: servizio da caffe'- qahva xizmati. (bosh kelishik)

12) Chegara (tana kamchiliklarini ko'rsatish uchun): cieco da un occhio - bir ko'zi ko'r. (bosh kelishik)

13) Kesim: Comportarsi da milionario - o'zini milioner**dek** tutmoq. (holat ravishi)

Da predlogi ishlatilishi o'zbek tilida o'rin – payt kelishigi bilan mos keladi, ammo uning ishlatilish o'rinlarining talabalar tamonidan yaxshi o'zlashtirilishi talabaning yanada bilim saviyasini ko'tarishga xizmat qiladi.

“In” predlogi o’zbek tili grammatikasida asosan o’rin-payt va vazifadosh ko’makchiga mos keladi. Quyida “in”predlogining ishlatilish o’rinlarini va o’zbek tili grammatikasidagi ekvivalentlarini ko’rib chiqamiz.

- 1) Bir joydagi harakat: lui andava spesso in montagna¹¹ - u tog’da istiqomat qilardi. (o’rin-payt kelishik)
- 2) Bir joyga harakat: ogni anno andava in Russia - har yili Rossiyaga borardi. (jo’nalish kelishik)
- 3) Aniq vaqt: sono nata nel 1990 - 1990 yilda tug’ilganman. (o’rin-payt kelishik)
- 4) Vaqt davomiyligi: devo finire la mia tesi in due mese - bitiruv malakaviy ishimni ikki oyda bitirishim kerak. (o’rin-payt kelishik)
- 5) To’ldiruvchi kesim: portare in regalo - sovg’aga olib bormoq. (ko’makchi)
- 6) Mahsulot: la statua in bronza - bronzali haykal. (so’z yasovchi)
- 7) Chegara: l’aurearsi in arte - san’atni bitirmoq. (tushum kelishik)
- 8) Yakun: spedire in omaggio una scatola di cioccolato - hurmat bilan bir quti shokolad yubormoq. (sof ko’makchi)
- 9) Vosita: vai all’universita’ in bicicletta - universitetga velosiped bilan bor. (sof ko’makchi)
- 10) Holat: Remo ha parlato in fretta e furia¹² - Remo tez va jahl ustida gapirdi. (holat ravishi)
- 11) Son: eravamo in due - ikki kishi edik. (bosh kelishik)
- 12) O’zgarish , shartli: la rana si e’ trasformata in un bel principe - qurbaqa bir chiroyli malikaga aylandi. (bosh kelishik)

In predlogi boshqa yuqoridagi predloglardan farqli ravishda asosiy qo’llanilishi o’zbek tilidagi o’rin – payt va vazifadosh ko’makchilarga to’g’ri kelishi italyan tilidagi predloglar kelishiklardan tashqari ko’makchi va vazifadosh

¹¹ Ginzburg N. Lessico familiare – M. : Mondadori 1997, 902- p.

¹² Maretti S. Pronto, commissario – R. : Bonacci 1996, 34- p.

ko'makchilarga muqobil variant bo'lishini e'tiborga olish kerak bo'lgan holatlardan biridir.

“per” predlogi “uchun” o'zbek tilida sof ko'makchiga to'g'ri keladi. Uning ham qo'llanilisho'rinlarini solishtirib ko'rib chiqamiz.

1) Bir joy oralab harakat: Michele passa per la porta ¹³- Mikele deraza bo'ylab o'tdi. (sof ko'makchi)

2) Bir joyga harakat: partire per India - Hindistonga jo'namoq. (jo'nalish kelishik)

3) Bir joydagi holat: e' caduta per terra - u yuztuban yiqildi. (holat ravishi)

4) Sabab: si e' coperta per freddo - sovuqligi uchun yopindi. (sof ko'makchi)

5) Vosita: parlare per telefono - telefon orqali gaplashmoq. (vazifadosh ko'makchi)

6) Maqsad: mangiare per vivere - yashash uchun yemoq. (sof ko'makchi)

7) Vaqt: ha il lavoro per domain – ertangi kun uchun uni ishi bor. (sof ko'makchi)

8) Baho: Giulia e' arrivata per pochi soldi¹⁴ – Juliana kam pul bilan yetib kelmoq. (sof ko'makchi)

9) O'rniga qo'yish va almashinish: tu capisci sempre una cosa per altra - sen doim bir narsani boshqacha tushunasan. (holat ravishi)

10) Chegara: per la prima volta va bene - birinchi marta uchun yaxshi. (sof ko'makchi)

11) Yakun: lo mostro per accorgerti - buni sen payqashing uchun ko'rsataman. (sof ko'makchi)

¹³ Ammaniti N. Io non ho paura – T. : Giulia Einaudi 2001, 51 p.

¹⁴ Santoni N. La straniera – R. : Bonacci 1998, 32- p.

Per predlogini tushuntirish vaqtida uning sof ko'makchiga to'g'ri kelishini va ular o'zbek tilida ham kelishik qo'shimchalari bilan sinonimik aloqalari borligini aytib o'tish o'rinli bo'ladi.

“con” predlogi **“uchun”** o'zbek tilida sof ko'makchiga to'g'ri keladi. Ishlatilishida o'zbek tilida qariyb har doim sof ko'makchi va ba'zan vazifadosh ko'makchi holatni ifodalaganda holat ravishi bo'lib keladi. Masalan: *parlare con calma* – tinch holatda gapirmoq; *con tutto rispetto, mi permetto di correggerla* - hurmat yuzasidan sizni to'g'irlashga ruxsat eting. **“su”** predlogi **“ustida”** o'zbek tilida vazifadosh ko'makchiga mos keladi va quyida ishlatilish o'rinlarini o'zbek tiliga taqqoslab keltiramiz.

1) Tarkib, mazmun: *questa storia su amore* – bu sevgi haqidagi hikoya. (vazifadosh ko'makchi)

2) Yoshni chamalash: *quella donna ha sulla quaranta anni* - anavi ayol qirq yoshlarda. (chama son)

3) Joydagi holat: *la lettera e' sul sul banco* - xat partaning ustida. (vazifadosh ko'makchi)

4) Bir joyga yo'nalish: *andiamo sul balcone* - ayvonga chiqaylik. (jo'nalish kelishik)

5) Vaqt: *vediamoci sul tardi*- kechroq ko'ramiz. (payt ravishi)

6) Son va hajm: *queste caramelle costano sui sette mila sum* - bu konfentlar yetti ming sumlar atrofida turadi. (vazifadosh ko'makchi)

7) Holat: *lui lavorava sui giornali*¹⁵ – u jurnallar ustida ishlardi. (vazifadosh ko'makchi)

8) Turli holardagi bo'linishlar: *questa farmacia e' aperto 24 ore su 24* - bu dorixona 24 soat davomida ochiq. (vazifadosh ko'makchi)

“Fra / tra” **“orasida / o'rtasida”** o'zbek tilida vazifadosh ko'makchilarga to'g'ri keladi va barcha qo'llanilish o'rinlarida o'zbek tilida vazifadosh ko'makchi

¹⁵ Caxtelazza D. Premio letterario – R. : Bonacci 1998, 33- p.

sifatida ifodalanadi. Masalan: Tra due paese c'è un canale - ikki davlat orasida bitta kanal bor. Alcuni tra i presenti protestarono - qatnashganlar orasidan ba'zilari qarshilik ko'rsatishdi.

Ravish so'z turkumi italyan va o'zbek tillarida asosan harakat holatning bajarilish tarzini, paytini, o'rnini, miqdorini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Ikki tilda ham ravishning ma'no turlari oltitadan bo'lishiga qaramasdan, ular o'rtasida tavofutlar mavjud. Italyan tilida 1. Avverbio di modo 2. Avverbio di luogo 3. Avverbio di tempo 4. Avverbio di quantita' 5. Avverbio di giudizio 6. Avverbio interrogative.

O'zbek tilida 1. Holat ravishi 2. O'rin ravishi 3. Payt ravishi 4. Daraja miqdor ravishi 5. Sabab ravishi 6. Maqsad ravishi .

Yuqorida keltirilgan ravishlardan italyan tilidagi avverbio da modo o'zbek tilidagi holat ravishiga, avverbio di luogo o'rin ravishiga, avverbio di tempo payt ravishiga to'g'ri keladi. Ammo italyan tilidagi "avverbio di giudizio"- baholovchi ravish va "avverbio interrogativo"- so'roq ravishi o'zbek tilida mavjud emas. "Avverbio di giudizio"- baholovchi ravishlar o'zbek tili grammatikasida alohida olingan so'z turkumiga tegishli modal so'z turkumiga kiradi. Italyan tilidagi "avverbio interrogative" so'roq ravishlari o'zbek tili grammatikasida so'roq olmoshlariga to'g'ri keladi.

O'zbek tilidagi maqsad va sabab ravishi italyan tili grammatikasida mavjud emas. O'zbek tilidagi maqsad va sabab ravishi italyan tili grammatikasida holat ravishi tarkibida bo'ladi. Italyan tilidagi ravish so'z turkumiga oid so'zlar gap tarkibida sifatdan oldin, fe'ldan keyin keladi. Lekin holat ravishi gapda xoxlagan o'rinda keladi. O'zbek tilida esa ravish turkumiga oid so'zlar ba'zan sifatga va ravishga bog'lanadi. Agar otga bog'lansa sifatr o'rnida kelgan bo'ladi. Masalan: italyan tilida *sono troppo contento* – men juda xursandman. Bu gapda ravish sifatdan oldin kelyapti.

Lui studia tanto – U ko'p o'qiydi. Bu gapda ravish fe'ldan keyin kelmoqda. O'zbek tilidagi ravishlar fe'ldan oldin keladi. Italian tilidan o'zbek tiliga gapni tarjima qilish davomida o'zbek tilining grammatik qonun - qoidalariga bo'ysungan holda italyan tilidagi fe'ldan keyin kelgan ravish o'zbek tilida fe'ldan oldin keladi. Masalan: U ish ko'pligiga qaramasdan biroz kitob o'qidi. Ushbu gapda ravish fe'ldan oldin kelgan. Nodiraning dugonalari biroz sho'x. Ushbu gapda ravish sifatdan oldin kelmoqda. U ishdan biroz qaytdi. Ushbnu gapda daraja miqdor ravishi payt ravishidan oldin kelmoqda.

Bog'lovchi. O'zbek va italyan tillarida bo'g'lovchilar ikki va undan ortiq so'zlarni yoki undan ortiq gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi. O'zbek tilida bog'lovchilar yordamchi so'z turkumiga kirsam, italyan tilida o'zgarmaydigan so'z turkumiga kiradi. O'zbek tilida bog'lovchilar qo'llanilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: yakka(ammo, va, chunki), takror (yo yo, dam dam) italyan tilida bo'lsa sodda (e, ma), qo'shma (perche') bo'ladi. Vazifasiga ko'ra ikki tilda ham ikki turga bo'linadi: teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar. O'zbek tilida teng bog'lovchilar uch xil:

1. Biriktiruv bog'lovchilar: va, ham, hamda.
2. Zidlov bog'lovchilar: ammo, lekin, biroq.
3. Ayiruv bog'lovchilar: yo, yoki, yoxud.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar esa to'rt turga bo'linadi:

1. Aniqlov bog'lovchilar: yani, -ki, kim.
2. Sabab bog'lovchilar: chunki, shuning uchun, zero.
3. Shart bog'lovchilar: agarda, garchi, basharti, mobodo.
4. Chog'ishtiruv bog'lovchilar: go'yo, go'yoki.

Italian tilida o'zbek tilidan farqli ravishda teng bog'lovchilarning olti xil turi mavjud. Quyida o'zbek tili bilan solishtirgan holda ularni keltiramiz:

1.Copulative: e, anche, ne', neppure, nemmeno, neanche – va, ham, na, hatto, hattoki; o'zbek tilida biriktiruv bog'lovchilar.

2.Disgiuntive: o, ovvero, oppure, altrimenti – yo, yoki, yoxud, aks holda;o'zbek tilida ayiruv bog'lovchilar deyiladi.

3. Avversative: ma, tuttavia, invece, anzi, pure – ammo, lekin, biroq, shunga qaramay, qaramasdan, aksincha,... - ga qaramasdan; o'zbek tilida zidlov bog'lovchilar .

4. Dichiarative: cioe', infatti, difatti, ossia – ya'ni, darhaqiqat,haqiqatdan, gap shundaki; o'zbek tilida ergashtiruvchi bog'lovchilarning aniqlov bog'lovchilar guruhiga to'g'ri keladi.

5. Conclusive: percio, dunque, pertanto, quindi, sicche' – shuning uchun, shunga ko'ra, shu sababli, binobarin, demak, shunday qilib; o'zbek tilida ergashtiruv bog'lovchining sabab guruhiga to'g'ri keladi.

6. Correlative: e...e, o...o, ne'...ne', cosi'...come, non solo...ma anche – va...va, yoki...yoki, na...na, qanday...shunday, -ga...qaramasdan;o'zbek tilida qo'llanilishiga ko'ra takroriy bog'lovchiga to'g'ri kelsa, vazifasiga ko'ra teng bog'lovchilarning ayiruv guruhiga mansub.

Italian tilida ergashtiruvchi bog'lovchilar:

1. Causale: perche', poiche', siccome, che, giacche' – chunki, negaki, shuning uchunki, asbabli, madomiki, -ki, agar;O'zbek tilida bu ergashtiruvchi bog'lovchilarning sabab guruhiga mos keladi.

2. Finali: affinche', che, perche' - uchun, -ga, chunki, negaki, shuning uchunki; o'zbek tilida ergashtiruvchi bog'lovchilarning sabab turiga mansub.

3. Temporal: quando, mentre, allora, prima che- qachon, paytda, -da, o'sha vaqtda, o'shanda, o'sha kezda, hozirgina, qadar,- gacha, to, ...bo'lishi

oldida, - dan oldin; o'zbek tilida bu so'zlar hol ergashtiruvchi gapli qo'shma gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

4. Dichiarative: che, come- (qaysiki,)-ki, - kim, hozirgina, shu zahoti. O'zbek tilida so'zlar hol ergashtiruvchi gapli qo'shma gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

5. Consecutive: cosi', ...che, tanto... da- shunday...ki, shunday, shanaqa, shunchalik, shu qadar.

O'zbek va italyan tillarida bog'lovchi turlari bir biriga to'liq holda mos kelmasada, ularning vazifasi bir xil va talabalar o'zbek tilida bog'lovchi turlari italyan tiliniki bilan farqlarini va qo'llanilishini o'rganib muloqot jarayonida foydalanishlari uchun o'quv qo'llanmadan yetarlicha malumotga ega .

Undov so'zlar italyan tilida o'zgaruvchan so'z turkumiga kiradi. O'zbek tilida bo'lsa alohida olingan so'z turkumlari vakili hisoblanadi. Undov so'zlar gapning boshqa elementlari bilan hech qanday grammatik munosabatga kirishmagan holda nutqda ishlatiladigan birikmalardir.

Yozma nutqda undov so'zlar biror-bir tuyg'u yoki his-hayajon, kayfiyat, so'roq, ajinish, kamsitish, qo'rqinch, taajub, hayrat, rad, norozlikni ifodalash uchun, hamda muloqatni ta'sirliroq va jonliroq qilish uchun ishlatiladi. Shuning uchun undov so'zlarning ma'nosi matn mazmunidan kelib chiqadi.

Og'zaki nutqda undov so'zlarning ma'nosi matn mazmunidan tashqari, shuningdek, so'zlovchining ovoz ohangidan va yuz itodasidan ham kelib chiqadi.

Undov so'zlar italyan tilida **semplici**, **composte** va **improprie** (oddiy. qo'shma va undov so'z birikmalariga) turlariga bo'linadi. O'zbek tilida bo'lsa his – hayajon va buyruq – xitob undovlaridan iborat.

Italyan tilidagi oddiy undov so'zlar **h** undosh tovushidan oldin kelgan va undov belgisi bilan belgilangan bitta unlidan tashkil topgan so'zlardir: *ah!*, *eh!.oh!*, *uh!*, shuningdek, birdan ortiq unli va undosh tovushlardan tashkil topgan quyidagi undov so'zlardan iborat va buni o'zbek tilidagi ekvivalenti bilan birga keltirib o'tamiz.

•**urra!**- xursanchilik, g'alaba va shu kabilarni ifodalash uchun ishlatiladi va bu o'zbek tilida yashasin so'ziga mos ke ladi.

•**auff ! yoki uffa !** zerikish, bezovtalikni ifodalash uchun ishlatiladi va o'zbek tilida uf, uhga o'xshashdir.

•**opla'!**– biror bir aniq yoki majoziy ma'noda to'siqdan sakrab o'tishda ishlatiladi va o'zbek tilida oppa deb ishlatiladi.

•**puah !** – yoqimsizlik, biror narsaga nisbatan nafratni ifodalash uchun ishlatiladi va o'zbek tilidagi varianti puf bo'ladi.

•**ma ! / mah** – noaniqlik va ishonchsizlik xissini ifodalash uchun ishlatiladi va o'zbek tilida iim, e, be kabilar ishlatiladi.

• **boh !** – ishonchsizlik yoki gumonni ko'rsatish uchun ishlatiladi va ee, imm variantlari sinonim bo'la oladi.

•**toh !**- hayrat yoki ajablanishni ifodalash uchun ishlatiladi va o'zbek tilida iye, buni qarang so'zlari ishlatiladi. Quyidagi so'zlar ham oddiy undov so'zlar qatoriga kiradi: **magari**- qaniydi, **caspita**- yo'g'- ey, jin ursin, **peccato**- afsus kabilardan iborat.

Qo'shma undov so'zlar ikkita so'z yoki grammatik elementning birikishidan tashkil topadi. Ularga : ahime !, eccome ! perbacco !, suvvia, ! kabilar kiradi va bular o'zbek tilidagi buyruq – xitob undovlariga o'xshashdir.

Undov so'z birikmalari bir nechta so'zdan tashkil topgan bo'ladi.

Undov so'zlar qo'pol so'z birikmalarini ishlatmaslik uchun qo'llanilgan taqlid ma'nosiga ham ega bo'lishi mumkin. Italyan tilidagi qo'shma undovlar va undov so'z birikmalar o'zbek tilida buyruq – xitob undovlariga to'g'ri keladi. Ushbu mavzu yuzasidan talabalarda u darajada qiyinchiliklar kuzatilmaydi. Lekin kuzatilishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish maqsadida bu mavzu yuzasidan o'quv qo'llanmada tushuntirishlar berilgan.

II bobga xulosa

